

Muallif: Namangan viloyat Mingbuloq tumani xalq ta'limi bo'limiga qarashli 43 – umumiy o'rta ta'lim maktabi biologiya fani o'qituvchisi **Qaxorova Gulchexra**

11-sinf.

III-chorak test savollari.

1. Biosfera atamasini birinchi bo'lib fanga kim kiritgan?

- A) 1885 yil J.B. Lamark B) 1875 yil Eduard Zyuss
C) 1895 yil V.I.Vernadskiy D) 1878 yil A.Tensli

2. Tirik organizmlar Yerning qaysi qobig'ida ko'p uchraydi?

- A) Atmosferada B) Litosferada C) Gidrosferada D) Zoosferada

3. Biogen moddalar deb nimaga aytiladi?

- A) Tirik organizmlarning faoliyati mahsulotlari yoki ularning organik qoldiqlaridan hosil bo'lgan moddalar yig'indisi.
B) Bir vaqtning o'zida tirik organizmlar faoliyati va abiogen jarayonlar natijasida hosil bo'lgan moddalar.
C) Yerda hayot paydo bo'lishidan avval, tirik organizmlar faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda hosil bo'lgan moddalar.
D) Radioaktiv elementlar va ularning parchalanishidan hosil bo'ladigan moddalar.

4. Qattiq moddalarga misollar keltiring?

- A) Bazalt, ko'mir, torf B) Grafit, bazalt, marmar
C) Bo'r, bazalt, torf D) Granit, bazalt, torf

5. Biogen moddalarni aniqlang?

- A) Neft, kvarts, zumrad, olmos B) Toshko'mir, neft, zamburug', bo'r
C) Neft, toshko'mir, bo'r, ohaktosh D) Mikroorganizmlar, zamburug'lar

6. Biosferaning energetik funksiyasi nimadan iborat?

- A) Muhitning fizik kimyoviy xususiyatlarini o'zgartirish orqali tirik organizmlar yashashi uchun qulay sharoit yaratish bilan belgilanadi.
B) Tirik organizmlarning hayotiy jarayonlarida ayrim moddalarni to'plash xususiyatida namoyon bo'ladi.
C) Nobud bo'lgan organizmlar tarkibidagi organik birikmalarning parchalanishi va minerallashuvi, tog' jinslarining yemirilishi, hosil bo'lgan mineral moddalarning biokimyoviy aylanishini amalga oshirish.
D) Tirik organizmlarning quyosh energiyasini o'zlashtirib, uni organik moddalarning moddalarning kimyoviy bog'lar energiyasiga aylantirishi.

7. Yer yuzidagi tirik biomassani asosan nimalar tashkil etadi?

- A) Hayvonlar B) Yashil o'simliklar C) Mikroorganizmlar D) Bakteriyalar

8. Tirik moddaning eng ko'p biomassasi qaysi mintaqada uchraydi?

- A) Tog'larda B) Adirlarda C) Tropik o'rmonlarda D) Yaylovlarda

9. Tuproqning yuza qatlamlarida qaysi tirik organizmlar hayot kechiradi?

- A) Ko'p hujayrali yashil suvo'tlar va bakteriyalar B) Bakteriyalar va zamburug'lar
C) Bir hujayrali hayvonlar D) Bir hujayrali yashil suvo'tlar va sianobakteriyalar

10. Atomlarning biogen migratsiyasiga ta'rif bering?

- A) Tirik modda yordamida kimyoviy moddalarning migratsiyasiga

- B) Tog' jinslarining yemirilishiga
- C) Litosferada cho'kindi jinslar qatlami hosil bo'lishiga
- D) Kislorod fotosintez jarayonida, karbonat angidrid gazi uglevodlarga qaytarilishiga

11. Okeanda fotosintez jarayoni necha metrgacha bo'lgan yuqori qatlamlarda uchraydigan produsentlar ishtirokida sodir bo'ladi?

- A) 150 m
- B) 100 m
- C) 200 m
- D) 250m

12. Okeanlardagi hayvonlarning oziqlanishida qaysi tirik organizmlarning ahamiyati katta?

- A) Mayda baliqlar
- B) Qisqichbaqasimonlar
- C) Planktonlar
- D) Ko'p hujayrali suvo'tlari

13. Tirik organizmlar hayot faoliyati uchun zarur elementlar biogen elementlar deyiladi. Ushbu biogen elementlarning eng muhimlarini belgilang?

- A) S, C, N, B, Ca, Fe
- B) Cl, K, P, N, C, Mo
- C) O, N, S, H, P, C
- D) Cu, I, Zn, N, O, C

14. Yashil o'simliklar tashqi muhitdan karbonat angidrid, suv, mineral tuzlarni o'zlashtirib, quyosh nuri ta'siri va xlorofill ishtirokida geterotrof organizmlar uchun zarur bo'lgan birlamchi mahsulot..... sintezlaydi.

- A) Anorganik birikmalarni
- B) Organik birikmalarni
- C) O'simlik qoldiqlarini
- D) Hayvon qoldiqlarini

15. Azot tirik organizmlar uchun zarur organik moddalar bo'lib, asosan qaysi birikmalar tarkibiga kiradi?

- A) Oqsil, uglevod, nuklein kislota, polisaxarid
- B) Oqsil, nuklein kislota, lipoprotein, xlorofill
- C) Kraxmal, glyukoza, selluloza, glikogen
- D) Fruktoza, laktoza, saxaroza, kraxmal

16. Chirituvchi bakteriyalar azotli organik birikmalarni parchalashi natijasida hosil bo'ladigan birikmalarni aniqlang?

- A) Mochevina, nuklein kislota, oqsil
- B) oqsil, pektin, eritroza
- C) Geparin, lixenin, oqsil
- D) Nuklein kislota, oqsil, glikogen.

17. Nitrifikatsiya qanday jarayon?

- A) Birinchi guruh ammiakni nitrat kislota, ikkinchi guruh esa nitratni nitrit kislota oksidlaydi
- B) Birinchi guruh ammiakni nitrit kislota, ikkinchi guruh esa nitritni nitrat kislota oksidlaydi
- C) Ammiakni oksidlash natijasida hosil bo'lgan energiya hisobiga organik birikmalardan anorganik birikmalar sintezlanishi
- D) Ammoniy tuzlarining o'simliklar tomonidan o'zlashtirilishi

18. Biosferaga kislorodni yetkazib beruvchilar?

- A) Bakteriyalar
- B) Zamburug'lar
- C) Fototrof organizmlar
- D) Yashil o'simliklar, sianobakteriyalar

19. So'nggi yillarda qanday salbiy holatlar kuzatilmoqda?

- A) Kislorodning davriy aylanishining buzilishi
- B) Is gazining ortib borishi, ekologiyaning buzilishi
- C) Fotosintez mahsuldorligining pasayishi, tuproq eroziyasi, o'rmonlar qisqarishi
- D) Ba'zi organizm turlarining kamayib borishi

20. Kislotali yomg'ir qaysi element davriy aylanishining buzilishi natijasida kelib chiqadi?

- A) Azot
- B) Uglarod
- C) Fosfor
- D) Oltingugurt

21. Fosfor asosiy biogen elementlardan biri bo'lib, asosantarkibiga kiradi.

- A) Dentin(tish qatlam), hujayra membranasi, aminokislotalar
- B) Nuklein kislotalar, ATF, hujayra membranasi, suyak to'qimasi
- C) Hujayra membranasi, aminokislotalar, muskul to'qimasi
- D) Aminokislotalar, nuklein kislotalar, suyak to'qimasi

22. Fosfor aylanishida redutsentlarning asosiy vazifasi?

- A) Anorganik birikmalarni parchalab, kislota holdagi fosfatlarga aylantirish
- B) Barcha turdagi birikmalarni parchalab, mineral holdagi fosfitlarga aylantirish
- C) Qisqa geologik davrlar mobaynida tog' jinslarini hosil qiladi
- D) Organik birikmalarni parchalab, mineral holdagi fosfatlarga aylantiradi

23. Atmosfera tarkibida qaysi modda uchramaydi?

- A) Uglerod B) Azot C) Fosfor D) Isgazi

24. Tabiatda oltingugurt asosan qanday birikma holda uchraydi?

- A) Vodород sulfid, sulfid angidrid, erkin oltingugurt
- B) Sulfat angidrid, sulfat kislota tuzlari, oltingugurt
- C) Faqat erkin holda uchraydi
- D) Birikma holda uchramaydi

25. Tirik organizmlardan qaysi biri uglerod birikmalaridan ba'zi organlarni hosil qilishda foydalanadi?

- A) Meduzalar, molyuskalar B) Qisqichbaqasimonlar, riflar
- C) Korall poliplar, molyuskalar D) Korall riflar, qisqichbaqalar

26. Dastlabki quruqlik o'simliklarini belgilang?

- A) Sigilyariyalar B) Lepidodendronlar C) Riniya, kuksoniya D) Daraxtsimon qirququloqlar

27. Eralarga tegishli xususiyatlarni birlashtiring?

1-Arxei, 2-Mezozoy, 3-Proterozoy, 4-kaynozoy, 5-Paleozoy.

- a. Sudralib yuruvchilarning xilma-xilligi ortgan. b. Trilobitlar va korall poliplari avj olib rivojlangan.
- s. Lemurlar, keng tovonlilar driopitekklar paydo bo'lgan. d. Dastlabki xordalilar paydo bo'lgan.
- e. Sianobakteriyalar keng tarqalgan.

- A) 1-a; 2-b; 3-s; 4-e; 5-d; B) 1-e; 2-a; 3-d; 4-s; 5-b;
- C) 1-d; 2-s; 3-e; 4-a; 5-b; D) 1-s; 2-d; 3-a; 4-b; 5-e.

28. Dastlabki quruqlik o'simliklaridan so'ng qaysi o'simliklar kelib chiqqan?

- A) Ochiq urug'lilar, yopiq urug'lilar, qirqbo'g'imlar
- B) Ko'p hujayrali suvo'tlar, yo'sin, plaun
- C) Bir hujayrali suvo'tlar, qirqbo'g'im, plaun
- D) Yo'sin, plaun, qirqbo'g'im, qirquloq, urug'li o'simliklar

29. Noosfera atamasini fanga kim kiritgan?

- A) Eduard Lerua B) V.I.Vernadskiy C) Djon Rey D) Eduard Zyuss

30. Noogenez davri necha ming yil avval boshlangan?

- A) 45 ming B) 50 ming C) 55 ming D) 48 ming

31. Odam evolyutsiyasida Homo sapienslar qanday nomlangan?

- A) Arxantropalar B) Pitekantropalar C) Kromanonlar D) Sinantrop

32. Noogenika deb nimaga aytiladi?

- A) Kishilik jamiyati va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni o'rganuvchi fan
- B) Tabiat va hayvonlar o'rtasidagi munosabatni o'rganuvchi fan
- C) Atrofdagi jismlarni o'rganuvchi fan
- D) Atmosferadagi jismlarni o'rganuvchi fan

33. Inson ongiga asoslangan biosfera evolyutsiyasining eng yuqori bosqichi bu -..... .

- A) Gidrosfera B) Litosfera C) Noosfera D) Atmosfera

34. 1992 – yilda BMTning Yer sayyorasi muammosi bo‘yicha Rio-de-Janeyroda o‘tkazilgan halqaro anjumanda qanday dasturi ilgari surilgan?

- A) “Biologik xilma-xillikni saqlash”
- B) “Biologik turlarni ko‘paytirish”
- C) “Biologik muhofazani kuchaytirish”
- D) “Biologik mezonlarni ishlab chiqish”

35. XX asrda yer yuzida yo‘qolib ketgan hayvonlarni belgilang?

- A) Stellerov sigiri, xaltali bo‘ri, sayyor kaptar
- B) Dront, gigant dinornis, stegozavr
- C) Qalin junli karkidon, tur, lemur
- D) Gigant dinornis, sterellov mushugi

36. Junli karkidon inson tomonidan ovlanishi va iqlim o‘zgarishi natijasida necha ming yil ilgari qirilib ketgan?

- A) 15 ming
- B) 10 ming
- C) 12 ming
- D) 8 ming

37. “Qizil kitob “ ga kiritiladigan o‘simlik va hayvon turlari Tabiatni muhofaza qilish Xalqaro ittifoqi taklif etgan tasnifga binoan necha guruhga ajratiladi?

- A) 3 turga
- B) 4 turga
- C) 5 turga
- D) 6 turga

38. Hisor davlat qo‘riqxonasida necha turdagi umurtqali va umurtqasiz hayvonlarni uchratish mumkin?

- A) 180 dan ortiq umurtqali, 600 ga yaqin umurtqasiz hayvonlar
- B) 200 dan ortiq umurtqali, 450 ga yaqin umurtqasiz hayvonlar
- C) 250 dan ortiq umurtqali, 900 ga yaqin umurtqasiz hayvonlar
- D) 280 dan ortiq umurtqali, 800 ga yaqin umurtqasiz hayvonlar

39. Qo‘riqxonalarda yashovchi hayvon turlarini juftlab ko‘rsating?

1. Zomin davlat qo‘riqxonasi. 2. Qizilqum davlat qo‘riqxonasi. 3. Surxon davlat qo‘riqxonasi. 4. Zarafshon dasht-to‘qay qo‘riqxonasi.

a- Chiyabo‘ri, to‘qay mushugi, jayra, bo‘rsiq, karaganka, tovushqon; b- Turkiston silovsini, echkemar, ilonburgut, mallabosh, qora laylak; s- Tuvaloq, suv burguti, Amudaryo kichik kurakburuni, jayron; d-Turkiston ukkusi, boltayutar, kaklik, qorayaloq, sariq ilon, turkiston maynasi.

- A) 1-s; 2-b; 3-a; 4-d;
- B) 1-a; 2-b; 3-s; 4-d;
- C) 1- b; 2-d; 3-a; 4-s;
- D) 1-d; 2-s; 3-b; 4-a;

40. Qizilqum davlat qo‘riqxonasida qaysi o‘simlik turlarini uchratish mumkin?

- A) Parpi, oqsovrinjon, valeriana, qumloq bo‘znochi
- B) Sog‘d lolasi, Korolkov shirachi, turang‘il, qora tol
- C) Chimyon lolasi, norshirach, oq parpi, sunbul, kavrak
- D) O‘zbekiston chinniguli, oq lola, sarg‘ish lola, oshanin piyoz

Test javoblari

Savol	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
Javob	B	B	A	B	C	D	B	C	D	A	B	C	C	B	B	A	B	D	C	D
Savol	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30	31	32	33	34	35	36	37	38	39	40
Javob	B	D	C	A	C	C	B	D	A	B	C	A	C	A	A	B	B	C	D	B